



ITALY

SCIENCE AND INNOVATION IN THE
EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

FILOLOGIYA: ARAB TILINI O'RGANISHDA ZAMONAVIY
TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION YONDASHUV**Fahrutdinova Nodirabegim Jasur qizi**

Tosh.Yangi Asr Universiteti.Filologiya va

tillarni o'qitish (ShMT) 101.24

1-kurs talabasi

ummumanzura@gmail.com

+998 934271927

Soliyev Elyorbek Muxammadmo'sa ug'li

Ilmiy raxbar:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15852273>

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tilining dunyo tillari orasidagi o'rni va ahamiyati yoritildi. Nafaqat arab tilini o'rganishda, balki chet tillarini o'rganishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarbligi haqida keltirildi. Hozirda foydalanib kelinayotgan ilg'or texnologiyalar va innovatsion yondashuvlardan misollar keltirildi. Ularning afzalliklari va ular orqali erishish mumkin bo'lgan natijalar haqida fikrlar berildi.

Kalit so'zlar: arab adabiyoti, omil, arab davlatlari, visual ta'lim, ilovalar, platforma, loyiha

Abstract. This article highlights the place and importance of the Arabic language among the world's languages. It discusses the relevance of using modern technologies not only in learning Arabic, but also in learning foreign languages. Examples of advanced technologies and innovative approaches currently being used are given. Their advantages and the results that can be achieved through them are discussed.

Keywords: arabic literature, factor, Arab countries, visual education, applications, platform, project

Mumtoz arab tilida nihoyatda boy ilmiy va badiiy adabiyot mavjud. Uni yaratishda nafaqat arablar, balki fath qilingan mamlakatlarning aholisi ham ishtrok etgan.

Hozirgi vaqtda arab tili – somiy guruhiga kiruvchi eng ko'p tarqalgan tildir. Arab mumtoz adabiyotini o'rganish arab mamlakatlarining o'zlarida ham, sobiq Ittifoq davri va G'arb mamlakatlarida ham katta an'anaga ega. O'rta asr arab olimlari (antologiyalar tuzuvchilari, sharhlovchilar va adabiyot nazariyachilari) hamda hozirgi zamon arab adabiyotshunoslari– Jo'rji Zaydon, Muhammad Kurd Ali, Anis al-Maqdisiy, Taxa Husayn, Shavqi Dayf, Fuad al-Bo'stoniy, Marun Abbud va boshqalar arab adabiyoti tarixining ayrim masalalarini tadqiq etish uchun ham, butun adabiy jarayonning manzarasini tiklash uchun ham ko'p ishlar o'ldilar. Bundan tashqari, sharq olim va mutafakkirlaridan, Abdurahmon

Jomiyning “Favoidu az-ziyoiyya” nomli asari, Zamaxshariyning “Al-Mufasssol fi son’atil-e’rob” asari, Ali Mutarriziyning “Al-Misbah fi l’lmin-nahv” asari ham arab tili grammatikasiga bag’ishlangan muhtasham asarlar hisoblanadi. Birgina Zamaxshariyning misolini keltirsak, uni chuqur hurmat va alohida mehr bilan «Ustoz ad-dunya» («Butun dunyoning ustozlari»), «Ustoz al-arab val-ajam» («Arablar va g’ayri arablarning ustozlari»), «Jorulloh» («Allohning qo’shnisi»), «Faxru Xvarazm» («Xorazm faxri») kabi birorta ham allomaga nasib etmagan o’ta sharafli laqablar bilan atalganlar.¹

Arab tilining dunyo tillari orasidagi ahamiyati

Buni quyidagi omillarga bog’lab o’rganish mumkin.:

1.Diniy omil. Bilamizki muqaddas islom dinining asosiy manbalari hisoblangan Qur’oni Karim, hadislar va boshqa adabiyotlar arab tilida bitilgan. Musulmonlar o’z dinlarini asl manbalar orqali arab tilida o’rganadilar. Bugungi kunda dunyo aholisining 25 foizi musulmonlar ekanligi va bu ko’rsatkich kundan kunga oshib borayotgani arab tilining ahamiyatini yanada oshishiga sabab bo’lyapti desak mubolag’a bo’lmaydi.

2.Ilmiy, madaniy va tarixiy omil. Islom dinining rivojlanishi va ta’sir doirasining kengayishi sababli arab tili arab bo’lmagan xalqar hayotiga ham kirib bordi. VIII-XIII asrlar islom dinining gullab yashnagan oltin davri bo’ldi. Bu davr oralig’ida arab tili nafaqat diniy balki ilmiy tilga ham aylanib ulgirdi. Bu davrda musulmonlar tomonidan yaratilgan asarlar Yevropa uyg’onish davriga katta ta’sir o’tkazdi va ko’plab ilmiy kashfiyotlarga asos bo’ldi va hozirgi kunga qadar ahamiyatini yo’qotmadi. Inson hayoti uchun muhim ahamiyatga ega bo’lgan matematika, kimyo, astronomiya, tibbiyot, falsafa kabi fan sohalarining asosi ham arab tilida yozilgan manbalarga borib taqaladi. Kimyo, algoritm so’zlarining ildizi arab kalimalari ekanligi ham fikrimizning yorqin dalilidir.

3.Geografik omil. Har qanday til bir yoki ikki davlatning rasmiy davlat tili hisoblansa, arab tili 22 arab davlatining rasmiy tili hisoblanadi. Bu davlatlar dunyoning turli mintaqalarida joylashgani ham geografik jihatdan arab tilining mavqeyiga bevosita ta’sir o’tkazadi.

4.Iqtisodiy omil. Arab davlatlari hududi, ayniqsa Yaqin Sharq mintaqasi tabiiy yer osti boyliklari xususan neft va gazga boy hududlar sifatida dunyo jahon bozorida o’zining alohida o’rniga ega. Shu jihatdan arab tili biznes va iqtisod tili ham sanaladi.

5.Til sifatida betakrorligi.² Arab tili murakkab grammatik tuzilishga egaligi, leksik zahirasining o’ta boyligi, o’ziga xos yozuv turlari bilan ham boshqa tillardan ajralib turadi. Xususan, arab harflarining o’ziga xos talaffuzga ega

¹ “Sharq allomalarning ilmiy merosi”; Jumayeva N.; Buxoro. 2022-yil; 156-be

² xadicha.uz





ITALY



ITALY

ekanligi ham tilning ahamiyat kasb etishida muhim rol o'ynaydi. So'zlarining tuzilishi o'zak tizimiga asoslangan bo'lib, bu so'z yasalishini soddalashtiradi va boy lug'at xazinasiga ega bo'lish imkonini beradi. Boshqa tillardan farqli o'laroq arab tili nihoyatda sinonimlarga boy. Ayrim so'zlarning 100 dan ortiq ma'nodoshlari mavjud. Islom dinining yoyilishi bilan birga arab tili ham keng miqyosda yoyildi. Buning natijasini arab bo'lmagan xalqlar tillarida ham hozirga qadar arab leksikoni hissasining kattaligida ko'rishimiz mumkin.

Umuman olganda, arab tilini o'qitish va o'rganish nafaqat til o'rgatish jarayoni, balki arab madaniyati, iqtisodiyoti, siyosati hamda islom dini bilan uzviy bog'liq kengqamrovli bilimlar to'plamidir.

Talaba arab tilini o'rganish orqali:

- arab xalqlari madaniyati, san'ati, adabiyoti va tarixi haqida chuqurroq tushunchaga ega bo'lib, o'z dunyoqarashini kengaytiradi;
- islom dinining asosi sanalmish Qur'on va sunnat hukmlari haqidagi tushunchalarini yanada aniq va teran tushunishga imkon topadi;
- iqtisodiy jihatdan tez rivojlanayotgan arab davlatlaridagi turli tashkilotlar ish beruvchilari bilan aloqa o'rnatish, ular bilan hamkorlik qilish hamda xalqaro munosabatlarda faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi;
- shasiy rivojlanish, o'sish, takomillashish imkonini qo'lga kiritib, yangi g'oya va fikrlar bilan tanishadi

Shu bilan birga nafaqat arab tilini, balki boshqa xorijiy tillarni ham o'rganishga harakat qilib, mamlakatimizning jahon miqyosida o'zining o'rnini mustahkamlashida hissa qo'shishimiz darkor. Shu sababli ham, Prezidentimizning 2022-yil "xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori qabul qilinib, o'quv dasturlari va darsliklar zamon talabiga mos bo'lishi, xususan ilg'or axborot va media-texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish bo'yicha ko'rsatmalar belgilandi.³

Chet tillari, xususan, arab tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuv

Xorijiy tillarni o'rganishda, avvalo o'sha til uning ona tilisi bo'lgan pedagog-shaxslardan o'rganish eng samarali usul hisoblanadi. Chunki, xorijiy pedagog

³ lex.uz;





ITALY



ITALY

bizning ona tilimizni bilmasligi jihatidan ham biz unga maqsadimizni, mavzuni, vaziyatni xorijiy tilda qo'limizdan kelgancha tushuntirishga urunamiz. Bu esa muloqot jarayonida, nutqimizdagi kamchiliklarni yaqqol ko'rsatadi va biz o'z ustimizda yanada jiddiyroq ishlashga kirishamiz. Bu nazariy olingan bilimlarni-amaliy tadbiiq etish bo'lib, so'zlashuvda ko'p qo'llaniladigan so'zlarni tez o'zlashtirishga ham ko'mak beradi. Keyingi suhbatlar esa nisbatan oson va ravon nutq orqali kechadi. Bu usul samarali usullardan bo'lib, 2023-yildan boshlab ta'lim muassasalariga jami 500⁴ nafardan ziyod xorijlik pedagoglar jalb qilindi. Bu raqam esa yildan-yilga oshib bormoqda.

- **Visual ta'lim:** tilni o'qitishda ko'rgazmali materiallardan foydalanish, jarayonni tashkil etishning eng muhim jihatlaridan sanaladi. Ko'rgazmali materiallardan har xil rasmlar, slaydlar, video va audio materiallardan foydalanish orqali kerakli konseptni yaxshi tushinib olish imkoniyati paydo bo'ladi. Qo'shimcha ravishda, bu kabi materiallardan foydalangan holda dars jarayonida qiziqarli o'yinlarni va topshiriqlarni tashkillashtirish orqali talabalarning qiziqishlarini orttirish mumkin.

- **Zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish:** Zamonaviy texnologiyalar yordamida onlayn kurslar, konferenciyalarga qatnashish orqali yoki mobil til o'rgatuvchi ilovalar orqali mustaqil ravishda ishlash imkoniyati yaratiladi.

Mobil ilovalar. "Alifbee" ilovasi orqali talaba to'g'ri yozish, gapirish va o'qishni interaktiv usullar bilan o'rganadi. Uning IOS va Android uchun mobil ilovalari mavjud bo'lib, o'zingizning darajangizni bilib olib, aynan sizga mos bo'lgan daraja orqali ta'limingizni davom ettirishingiz mumkin. U 10 darajaga bo'lingan va 216 dan ortiq darslardan iborat.⁵

Duolingo. Duolingo chet tilini noldan boshlab o'rganuvchilarga ham, davom ettiruvchilarga ham mos ilova. U sizga kichik gaplar, rasmlar va audio yordamida yangi so'z, so'z birikma va gap tuzishlarni o'rgatib boradi. Mashqlar yordamida chet tilidagi so'zni eshitish va suratini ko'rish orqali o'z ona tilingizga tarjima qilishingiz mumkin.

Raqamli Platformalar. Zamonaviy raqamli platformalar orqali talabalar onlayn kurslarga ulanishlari, virtual sinflarda mashg'ulotlarga qatnashishlari mumkin. Bu ularga malakali o'qituvchilardan masofaviy ta'lim olish imkonini beradi. Misol uchun, Duolingo, Coursera va Zoom platformalari talabalar o'rtasida keng ommalashgan.

⁴ XalqtaLimInfo.uz;

⁵ Alifbee.com/uz



Gamifikatsiya. O'quv jarayoniga o'yin elementlarini kiritish talabalarni til o'rganishga qiziqtiradi va ularda sog'lom raqobat ruhini shakllantiradi. Gamifikatsiya jarayonida reyting tizimlari, mukofotlar va topshiriqlar mavjud bo'lib, o'quvchilarni doimiy ravishda til o'rganishga rag'batlantiradi.

Immersiv Texnologiyalar (VR va AR) Virtual (VR) va kengaytirilgan (AR) reallik texnologiyalari til o'rganuvchilar uchun muloqot muhitini yaratib beradi. Bu usul orqali talabalar o'zlarini real hayotda bo'lgandek his qilishlari mumkin va ularning muloqot qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

Teskari O'qish (Flipped Learning) Bu usulda talabalar uyda darsliklarni va materiallarni o'qib tayyorlanishadi, dars vaqtida esa nazariyani amaliyotda sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Ushbu yondashuvda talabalar mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishadi va dars vaqti esa ularni amalda qo'llashadi. Ushbu kitob ingliz tilini o'qitishdagi interaktiv yondashuvlar va innovatsion metodlarni tahlil qiladi.

Turli mamlakatlar bilan hamkorlikda loyihalarda qatnashish yoki yozishmalar olib borish orqali talabalar o'zining amaliy til bilimlarini rivojlantiradi va turli madaniyatlar bilan tanishadi. Bu esa madaniy muloqotni rivojlantirib, til o'rganishni boyitadi.⁶

Xulosa. O'qitish jarayonida maqsad bo'yicha natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ham ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida mustaqil fikrlay olsa, ijod qilsa, izlansa, tahlil qilsa, xulosa chiqarsa, o'zlariga guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yaratsa, shu o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Shu sababli har bir pedagog va talaba o'ziga mos va qulay bo'lgan, o'quv jarayonini ham oson ham qiziqarli tashkil etadigan va samarali natija va muvaffaqiyatlarga erishtira oladigan ta'lim texnologiyalaridan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Mumtoz arab adabiyoti"; Ziyavuddinova M.; Toshkent. 2012-yil;
2. "Sharq allomalarining ilmiy merosi"; Jumayeva N.; "Durdona" nashriyoti; Buxoro. 2022-yil;
3. Xadicha.uz; "Arab tili dunyo tillari orasida tutgan o'rni va o'ziga xos xususiyatlari"; Abduvaliyeva Komila; 1-yanvar; 2025-yil;

⁶ "Ingliz tilini o'rganishning innovatsion usullari"; Iminova Shakhnoza-Begim Bakhodirovna; 2024



ITALY

SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

4. “OTMlarda arab tilini o'qitish: ahamiyati, usullari va muammolari”; Gaipova Sh.; www.oriens.uz; 4(24); Nov., 2024; (E) ISSN: 2181-1784;
5. Lex.uz; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 19.01.2022 yildagi 34-son;
6. “Chet tillarini mustaqil organishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati”; Muwsa Narimbetov; Innovative developments and research in education International scientific-online conference;
7. Alifbee.com/uz;
8. <https://xabardor.uz/uz/x/296258>;
9. “Til o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni va samarasi “; Nosirova Surayyo;
10. “Ingliz tilini o'rganishning innovatsion usullari”; Iminova Shakhnoza-Begim Bakhodirovna, The Lingua Spectrum Volume 2.1. Maxsus son. October 2024

